Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxonov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopolov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	



YOQILG'I-ENERGETIKA KOMPLEKSIDA INNOVATSION SALOHIYATNI OSHIRISH STRATEGIYASI

Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna

Toshkent davlat texnika universiteti

E-mail: saidaxon-nabiyeva@mail.ru

ORCID: 0009-0000-6634-6408

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni rivojlantirishning dolzarb jihatlarini, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari tahlil qilingan. Energetika sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda ilmiy-texnik yutuqlar va zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati asoslab berilgan. Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va kadrlar salohiyatini oshirish orqali tarmoqning raqobatbardoshligini kuchaytirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar asosida milliy strategik yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: neft-gaz, iqtisodiyot, korxona, innovatsiya, investitsiya, resurs, tejamkorlik, texnologiya, raqobatbardoshlik, tovar, xizmatlar, salohiyat.

Abstract: This article analyzes current aspects of the development of innovative potential in the fuel and energy complex, existing problems, and strategies for their elimination. The importance of scientific and technical achievements and modern technologies in ensuring the sustainable development of the energy sector is substantiated. Ways to increase the competitiveness of the industry by stimulating innovation, improving the investment climate, and increasing human resources potential were considered. National strategic approaches based on advanced foreign experience have also been proposed.

Key words: oil and gas, economy, enterprise, innovation, investment, resource, economy, technology, competitiveness, goods, services, potential.

Аннотация: В данной статье проанализированы актуальные аспекты развития инновационного потенциала в топливно-энергетическом комплексе, существующие проблемы и стратегии их устранения. Обосновано значение научно-технических достижений и современных технологий в обеспечении устойчивого развития энергетической отрасли. Рассмотрены пути повышения конкурентоспособности отрасли за счет стимулирования инновационной деятельности, улучшения инвестиционного климата и повышения кадрового потенциала. Также предложены национальные стратегические подходы на основе передового зарубежного опыта.

Ключевые слова: нефть и газ, экономика, предприятие, инновации, инвестиции, ресурсы, экономия, технология, конкурентоспособность, товары, услуги, потенциал.

KIRISH

Jahonda bugungi kunda ichki energiya bozorlarini rivojlantirish siyosatining strategik maqsadi iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun yuqori sifatli yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ichki talabni barqaror tarzda qondirish, tabiiy yoqilg'i-energetika resurslari va energetika tarmog'i imkoniyatidan maksimal samarali foydalanishdan iborat. Yoqilg'i-energetika resurslari iste'molini boshqarish, tejash va ulardan samarali foydalanish muammosi ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan neft va gaz qazib chiqarish korxona va kompaniyalar rivojlanishida innovatsiyalarni qo'llash ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda.



So'nggi yillarda jahon miqyosida barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish tushunchasi ahamiyatining ortib borishi, g'oya va asosiy tamoyillarining ommalashishi, jahon iqtisodiyotida yoqilg'i-energetika resurslari iste'molini boshqarish sohasida yanada chuqur tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatmoqda. Ko'rinib turibdiki, u ko'p yo'nalishli ilmiy bilimlarni qo'llashni talab etadigan masalalar majmui bo'lganligi sababli ushbu yo'nalishda ko'p tomonlama tadqiqot olib borish kerak. Bozor munosabatlarida neft va gaz qazib chiqarish korxonalari boshqaruv tizimining har qanday darajasida noaniq qaror qabul qilish, ular uchun og'ir salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, ishlab chiqarish va xo'jalik operatsiyalarni amalga oshirish jarayonidagi vaqtni kamaytirish va ishonchli qaror qabul qilish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash lozimdir (Ishanxodjayeva, 2021).

Iqtisodiyotda neft-gaz korxonalarini rivojlantirish muammolari, shu jumladan qazib chiqarish, burg'ilash va qayta ishlash jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni faol joriy etish ilmiy tadqiqotlarda yetarlicha yoritiladi. Biroq, milliy iqtisodiyot, xususan yoqilg'i-energetika sanoatining o'ziga xosligi, uning iqtisodiyotda tugan o'rnidan kelib chiqib, unda investitsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, jarayonda barcha tomonlarning ochiq manfaatlarini hisobga olgan holda yaratilgan iqtisodiy modellar, mexanizmlar bo'yicha tadqiqotlar yuritilmagan (Umurzoqov, 2024).

Yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish juda murakkab va ziddiyatli jarayondir. Texnik vositalarni takomillashtirish mehnat xarajatlarini, ishlab chiqarish birligining tannarxidagi mehnat ulushini kamaytiradi deb hisoblanadi. Biroq, hozirgi vaqtda texnologik taraqqiyot "qimmatga tushmoqda", chunki u tobora qimmatroq mashinalar, liniyalar, robotlar, kompyuterni boshqarish vositalarini yaratish va ulardan foydalanishni talab qiladi va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun xarajatlarning ko'payishi kabi muammolarga olib kelmoqda. Bularning barchasi ishlab chiqarish tannarxida ishlatiladigan asosiy vositalarning amortizatsiya va texnik xarajatlarni ulushining ko'payishida aks etadi. Shunga qaramay, firma yoki korxonaning raqobatbardoshligi, ularning tovar va xizmatlar bozorida qolish qobiliyati, tovar ishlab chiqaruvchilarning moddiy resurslardan va innovatsiyalarni joriy qilish orqalishdan samarali foydalangan holda yuqori sifatli tovarlarni ishlab chiqarish va sotishga qaratilgan faoliyatidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yoqilg'i-energetika kompleksining innovatsion salohiyatini oshirishga doir muammolarni chuqur tahlil qilish, mavjud holatni baholash hamda samarali strategik yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan tizimli yondashuv qo'llanildi. Ilmiy ishda kompleks yondashuv asosida nazariy, empirik va statistik usullar uyg'unlashtirildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Taraxtiyeva (2015) o'z tadqiqotlarida neft-gaz majmuasi texnologik jihatdan murakkab ishlab chiqarish hisoblanadi. U neft, gaz va ularni qayta ishlash mahsulotlarini qidirish, quduqlarni qurish, qazib olish, tashish, qayta ishlash va sotishni ta'minlovchi xo'jalik yurituvchi subyektlar yig'indisidan iborat. Bugungi kunda neft qazib olish hajmini yanada oshirish kichik konlarni va qazib olish qiyin bo'lgan zaxiralarga ega konlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lib, bu ular innovatsiyalarni qo'llash, jihozlash va ishlatish uchun katta mablag' talab qiladi deb hisoblaydi.

Shortanov (2022) sohada hamkorlikni qo'llab-quvvatlash ko'plab omillar, jumladan, u yoki bu mamlakatlar aholisining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish zarurati bilan bog'liq. Davlatlar hamkorligining eng muhim yo'nalishlaridan biri yoqilg'i-energetika sohasida innovatsion salohiyatdir deb keltiradi.

Raximov (2022) o'z tadqiqotlarida neft-gaz sanoat chiqindilarini utilizatsiya qilish muammosi atrof-muhitni ifloslanishdan muhofaza qilish va resurslarni tejash masalalarini birlashtirdi. Chiqindilar, bir tomondan, yerdagi hayotning mavjudligi uchun og'ir yuk bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar ularni innovatsion usullarda boshqarishni joriy qilinsa ulkan boylik bo'lib ham xizmat qiladi deb hisoblaydi.

Maxmudov (2024) yoqilg'i-energetika resurslarini ishlab chiqarishdan boshlab iste'molchiga yetkazib berishda zamonaviy billing axborot-kommunikatsiya tizimi tatbiq etish orqali, elektr va tabiiy gaz hisoblagichlarni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi resurslar samaradorligini oshiradi deb biladi.

Ishanxodjayev (2021) yoqilg'i-energetika resurslarini tejashni boshqarish sohasida olib borilgan tizimli tahlil natijalariga asoslangan holda "me'yorlashtirish-rejalashtirish-tezkor qayd etish-tizimli tahlil qilish-qaror qabul qilish" jarayonlarni o'z ichiga olgan yoqilg'i-energetika resurslarini tejashni boshqarishni, hamda uning har bir jarayonidagi model va algoritmlarini takomillashtirish taklif etgan.

Vahobov (2021) neft va gaz sanoatining ahamiyati har bir mamlakatning iqtisodiy erkinligini ta'minlashda bosh o'rinni egallaydi. Neft va gaz sanoatining xomashyo bazasi sifatida neft, gaz, uglevodorod, ko'mir singari foydali qazilmalar sanaladi. Neft va gaz sanoati xomashyo bazasi boshqa sanoat tarmoqlariga qaraganda



ko'proq daromad keltiradi. Neft va gaz sanoatining xomashyo bazasining tarkibi jahon iqtisodiyotida doimiy talab yuqori bo'lgan resurslar sanaladi shuning uchun sohada innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish korxona salohiyatini oshiradi deb ta'kidlaydi.

Sultanov (2018) yoqilg'i-energetika resurslari iste'molini boshqarish va yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalarini yechish neft va gaz qazib chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar rivojlanishining va innovatsiyalarni joriy etish kabi ustuvor vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining eng muhim jihatlaridan biri ishlab chiqarishni boshqarishda tizimli yondashish hisoblanadi deb aytib o'tgan.

Saidova (2023) energiya tejashning asosi energiya resurslaridan oqilona foydalanish va ularning yo'qotishlarini kamaytirishdir. Energiya tejash siyosati barcha ilg'or mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Davlatning energiya tejash siyosati-energiyani tejash sohasidagi faoliyatni huquqiy, tashkiliy, moliyaviy va iqtisodiy tartibga solish lozimligi haqida gapirib o'tgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Neft ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, innovatsion jarayon neft ishlab chiqarish texnologik zanjirining barcha bo'g'inlarida amalga oshiriladigan innovatsiyaning hayotiylik davri bosqichlarining o'zaro bog'liqligi bo'lib, u turli bosqichlarni o'z ichiga oladi - uni yaratish g'oyasining paydo bo'lishi, yangilikni tijoratlashtirish va undan amalda foydalanishdan tortib, uni yanada mukammal, progressiv shaklga almashtirishgacha bo'lgan jarayonni qamram oladi. Neft majmuasi faoliyatini jonlantirish istiqbollari tarmoqning investitsiyalar darajasini keskin oshirish imkoniyatlariga bog'liq bo'lib, u hozirgi vaqtda innovatsion rivojlanish uchun yetarli bo'lmay qolmoqda. Neft va gaz sanoatining o'ziga xos xususiyatlari innovatsion loyihalar va texnologiyalarni rivojlantirishga katta investitsiyalarni talab qiladi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

- Moliyalashtirishdagi muammolar so'nggi besh yilda ITTKI loyihalariga ajratilgan mablag'lar umumiy sanoat sektoriga ajratilgan mablag'larning atigi 3 foizini tashkil etgan;
- Regulyator cheklolari natijasida texnologik yangiliklarni sertifikatlash va standartlashtirish tizimlari zamon talablariga to'liq javob bermaydi, bu esa innovatsiyalarni joriy etish jarayonini sekinlashtiradi;
- Energetika sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning kam foizi zamonaviy texnologiyalar va innovatsion loyihalar bo'yicha malakaga ega. Bu esa kadrlar yetishmovchiligini keltirib chiqaradi.

Globalashuv va texnologik inqilob sharoitida yoqilg'i-energetika kompleksi (YEK) iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, xalqaro energetika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil holatiga dunyoda energiya iste'moli hajmi yillik 2,3 foizga o'sgan bo'lib, bunda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi asosiy rol o'ynagan (IEA, 2024).

O'zbekiston ham ushbu jarayonlardan chetda qolmayapti. So'nggi yillarda mamlakatimizda energetika tarmog'iga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2018-yilga nisbatan 2024-yilga kelib qariyb 1,8 barobarga oshdi. Energetika vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmi 1,2 milliard dollarga yetdi.

Biroq, mavjud salohiyatga qaramay, YEKda innovatsion faoliyat yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Masalan, O'zbekistonda energetika sohasiga yo'naltirilayotgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) ajratiladigan mablag' umumiy energetika investitsiyalarining atigi 2 foizini tashkil etadi. Holbuki, rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 7–10 foiz atrofida.

Nef-gazni qidirish va qazib olish sharoitlari murakkablashgani sari yanada zamonaviy texnologik yechimlar - geologik-gidrodinamik 3D modellash va virtual reallikdan foydalangan holda modellash, quduqlarni burg'ilash, qurish va qatlamlarning neft beruvchanligini oshirishning yangi texnologiyalari, shuningdek, neftni yig'ish, tashish va tayyorlashning innovatsion usullari talab etilmoqda.

1-jadval. Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirishdagi muammolar.

Muammo	Mumkin bo'lgan yechimlar	Buning uchun nima qilish kerak
Biznes va davlat o'rtasida yaratilayotgan intellektual mulkning shaffof qonunchilik bilan mustahkamlanmaganligi	Loyihaoldi bosqichida intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqlarini mustahkamlash va tartibini kelishish	Foyda solig'ini hisoblash maqsadida xarajatlar tarkibiga joriy daromad keltiruvchi faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'lmagan ITTKI xarajatlarini kiritish imkonini beruvchi mezonlarni qonunchilikda belgilash. ITTKI xarajatlari ro'yxatining o'zini qayta ko'rib chiqish kerak.



Yaratilayotgan texnologiyalarni tajriba va tajriba-sanoat miqyosida ishlab chiqish uchun pilot qurilmalar parkining yo'qligi	Sinov qurilmalarining infratuzilma-texnologik klasterlarini yaratish	Ilmiy-tadqiqot institutlari va tayanch oliy ta'lim muassasalari negizida innovatsion faoliyatga asos bo'ladigan texnoparklar va biznes-inkubatorlar tashkil etish. klastera v otrasli.
Loyiha bo'yicha davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishning murakkab tartibi. Qarz mablag'larini jalb qila olmaslik (byudjet muassasalari uchun)	Ijrochilar o'rtasida mablag'larni taqsimlash bo'yicha cheklolarni olib tashlash.	Tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi konsorsiumlar va boshqaruv kompaniyalarini (innovatsion kompaniyalarni) tashkil etish


Manba: Тарахтиева Гульмира Кульбаевна (2015). Инновации и их роль в управлении развитием топливно-энергетического комплекса Узбекистана // Экономика и финансы (Узбекистан). №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsii-i-ih-rol-v-upravlenii-razvitiem-toplivno-energeticheskogo-kompleksa-uzbekistana>.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi katta tabiiy gaz resurslariga ega. "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 118 ta kondan foydalaniladi, shundan 85 tasida tabiiy gaz qazib olinadi, qolgan 33 tasida geologik qidiruv ishlari olib borilmoqda. O'zbekistonda tabiiy gaz qazib olishda "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatining ulushi 63,0 foiz, gaz kondensati 67,0 foiz, neft 13,0 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, korxona tasarrufidagi tabiiy gaz konlarida ularni uzoq yillardan beri qazib olish jarayonlari sababli qatlam bosimining pasayishi kuzatilmoqda. Gaz qazib olish barqarorligini ta'minlash, shuningdek, gaz zaxiralarini maksimal darajada o'zlashtirish uchun har yili qo'shimcha kompressor stansiyalarini qurish hisobiga ishlab chiqarish ta'minlanishi mumkin. Ayni paytda "O'zbekneftgaz" AJ korxonalarida tabiiy gaz qazib olishning 96 foizi kompressor stansiyalari orqali amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, 2022-yilda 84 ta quduqda burg'ulash ishlari, 711 ta quduqda asosiy ta'mirlash ishlari va 27 ta texnologik tadbirlar amalga oshirilgan.

Jahon banki hisobotlariga ko'ra, 2030-yilgacha global energetika sohasiga investitsiyalarning qariyb 60 foizi innovatsion texnologiyalar va yashil energiya manbalariga yo'naltirilishi kutilmoqda. Bu esa an'anaviy yoqilg'i resurslariga asoslangan tarmoqlar uchun muhim signal hisoblanadi: kim innovatsiyani tezroq joriy etsa, o'sha bozorda ustunlikni qo'lga kiritadi; degan g'oyalar hozirgi kunda raqobatni shakllantirishda va innovatsiyalarni joriy etishni tezlashuviga ham sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston sharoitida bu ehtiyoj yanada keskinroq sezilmoqda. 2024-yil yakunlari bo'yicha respublikada energiya ishlab chiqarish hajmi 79 milliard kVt-soatni tashkil etdi. Shundan atigi 7,5 foizi qayta tiklanuvchi manbalardan olingan. Bu ko'rsatkich global o'rtacha daraja – 30 foizdan ancha past. Demak, innovatsion texnologiyalarni kengroq joriy qilish, yangi energiya manbalariga o'tish milliy energetika xavfsizligini mustahkamlash uchun ham zarur.

Aholi jon boshiga birlamchi yoqilg'i-energetika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi



1-rasm. Aholi jon boshiga birlamchi yoqilg'i-energetika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (Tonna neft ekvivalenti).

Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2688/line-data>



1-rasm ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak mamlakatimizda aholi sonining o'sib borishi va yoqilg'i-energetika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori kamayib bormoqda. Bu sohada innovatsion yechimlarni ishlab chiqish lozimligi naqadar muhimligini ham asoslaydi.

Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish global energetika tendensiyalariga mos ravishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. 2024-yil yakuniga ko'ra, dunyoda yangi qurilgan elektr energiyasi quvvatlarining 86 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga to'g'ri keldi (IRENA, 2024). Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi uch yilda energetika sohasidagi umumiy investitsiyalarning 55 foizi innovatsion texnologiyalar rivojiga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy elektr ishlab chiqarishdagi ulushi 9,2 foizga yetdi. Respublikada shamol va quyosh elektr stansiyalarining umumiy quvvati 1,5 GVt dan oshdi va 2026-yilgacha bu ko'rsatkichni 5 GVt ga yetkazish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, energetika sohasida elektr tarmoqlarida yo'qotishlar 2023-yilda 17,8 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichni 2030-yilgacha 10 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan. Moliyalashtirish borasida esa 2024-yil uchun energetika sohasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2,3 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 18 foizga ko'pdir.

Energetika sohasida raqamlashtirish darajasi ham ortmoqda. 2024-yil boshida ma'lumotlarga ko'ra, elektr energiyasi ta'minotining 28 foizi raqamli boshqaruv tizimlari orqali nazorat qilinmoqda. 2025-yilgacha bu ko'rsatkichni 50 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Innovatsion salohiyatni oshirish yo'lida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratiladigan mablag'larning ulushi 2024-yil holatiga ko'ra, 3,5 foizni tashkil etdi. 2030-yilgacha bu ko'rsatkichni 7 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Kutilayotgan natijalar qatorida energiya ishlab chiqarish samaradorligini 20 foizga oshirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini 2030-yilgacha 25 foizga yetkazish va energetika eksporti hajmini 1,8 barobarga oshirish maqsad qilingan.

Energetika korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasida klasterlar tashkil etish orqali innovatsion mahsulotlar yaratish tezligini oshirish mumkin. Masalan, Germaniyada energetika klasterlari orqali ITTKI samaradorligi 1,5 barobarga oshgan.

Sun'iy intellekt asosidagi energiya boshqaruv tizimlari, aqlli tarmoqlar (smart grid) va energiya samaradorligini oshirish texnologiyalarini joriy etish orqali O'zbekistonda elektr energiyasi yo'qotishlarini 12–15 foizgacha qisqartirish mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish butun iqtisodiyotni rivojlantirish uchun harakatlantiruvchi omil, o'ziga xos drayver hisoblanadi.

Bu mamlakat iqtisodiyotining barcha mavjud afzalliklaridan foydalanish va ularni hisobga olish, ishlab chiqarish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, yangi yaratilgan mahsulotlarni bozor talablariga samarali moslashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, mahalliyashtirish investitsiya loyihalari xorijlik hamkorlarning texnologiyalari va tajribasini samarali joriy etishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan keng ko'lamli milliy mexanizm va vositalardan foydalangan holda yangi texnologiyalarni mahalliyashtirishga maksimal darajada ko'maklashish zarur.

Yoqilg'i-energetika resurslaridan foydalanishning innovatsion salohiyati, resurslarning me'yoriy sarfi ishlab chiqarish korxonasidagi qurilma, uskuna, texnologik liniya va h.k.larning ish yuklamasini yil davomida o'zgarishi kabi bir qator omillarga bog'liq. Odatda me'yorlarni yil fasllariga qarab tabaqalashtirish kerak bo'ladi. Ish yuklamasining pasayishiga ko'pincha ishlab chiqarish korxonasining turg'un holda ishlamasligi, ishlab chiqarayotgan mahsulotga talabning pasayishi kabi omillar ham ta'sir etadi. Shuning uchun yoqilg'i-energetika resurslarining me'yoriy sarfi ko'rsatkichlarini unga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda hisoblash talab etadi. Bugungi kunda yoqilg'i-energetika resurslari sarfini me'yorlashtirish masalalasining tahliliy-hisoblash, tajribali va statistik-hisoblash usullari mavjud.

Yoqilg'i-energetika resurslarini tejashni boshqarish jarayonlarining yagona ma'lumotlar bazasi bu ma'lumotlarni aniq, dolzarb va ishonchli holatda saqlash hamda ular ustida amallarni tezkor bajarilishini va ortiqcha takroriy ma'lumotlarni ortib ketishini oldini olish imkonini beruvchi axborot tizimi hisoblanadi. Yagona ma'lumotlar bazasini yaratishning asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

- avtomatlashtirilgan yagona ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda yoqilg'i-energetika resurslarini tejashni boshqarishda ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy masalalarni yechishni ta'minlash;
- yoqilg'i-energetika resurslarini tejashni boshqarishda ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy jarayonlarni boshqarishni rejalashtirish va nazorat qilish masalalarini tezkor va samarali yechish uchun dolzarb va ishonchli ma'lumotlar bilan tezkor ta'minlash;
- standartlash, sertifikatlash va sifatli mahsulot bilan ta'minlash ishlarini olib borish uchun me'yoriy-axborot muhitini yaratish.



Ushbu yagona ma'lumotlar bazasini neft va gaz qazib chiqarish korxonasi misolida ishlab chiqish yoqilg'i-energetika resurslari, homashyo, material-butlovchi qism, moliyaviy resurs va boshqalarning harajatlarini, sarmoya kiritishni, quduq, uskuna, qurilma, texnologik liniya va boshqalarni joriy va kapital ta'mirlashni rejalashtirish jarayonini samaradorligini oshiradi, boshqarish va nazorat qilish tizimi masalalarini tezkor va samarali yechish uchun kerak bo'ladigan ishonchli ma'lumotlarni tayyorlashga sarf bo'ladigan vaqt va moliyaviy harajatlarni kamaytirish imkonini beradi (Sultanov, 2018)

Shu bilan birga, mamlakatimizda xorijiy kompaniyalarning ishlab chiqarish va sanoat xizmatlarini mahalliyashtirish nafaqat import o'rnini bosishga yordam beradi, balki mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtirishga, yangi ishlab chiqarish tashkil etish asosida yangi ish o'rinlarini yaratishga, barcha majburiy to'lovlar va tushumlarini yaratishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki:

- Energetika korxonalarda korporativ innovatsion laboratoriyalarni tashkil etish ularning faoliyatini yanada optimallashtirish imkonini beradi;
- Energetika-innovatsiya fondlarini barpo etish va xususiy sektorni faolroq jalb qilish orqali moliyaviy tomondan korxonalarni barqarorlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish uchun moliyaviy jihatdan imkoniyatlarni kengaytirishga olib keladi;
- Yangi startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali yuqori riskli, ammo yuqori daromadli texnologiyalarni tarmoqqa kiritish imkoniyati oshadi. AQSH tajribasiga ko'ra, bunday startaplar orqali energetika sohasiga har yili 200 dan ortiq yangi texnologiya kirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. IEA (2024), World Energy Outlook 2024, IEA, Paris <https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2024>, Licence: CC BY 4.0 (report); CC BY NC SA 4.0 (Annex A)
2. IRENA (2024), Renewable energy statistics 2024, International Renewable Energy Agency, Abu Dhabi.
3. Ваҳобов Ш. В. (2021). Нефть ва газ саноатида ишлаб чиқаришни ресурслардан фойдаланиш усулларининг илмий-назарий асослари // Экономика и социум. №11-1 (90). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/neft-va-gaz-sanoatida-ishlab-chi-arishni-resurslardan-foydalanish-usullarining-ilmiy-nazariy-asoslari>
4. Ишанходжаев Г. К., Султанов М. Б., Мирзаахмедов Д. М. (2021). Ёқилғи-энергетика ресурсларини тежашни бошқариш жараёнларининг ягона меъёрий маълумотлар базасини лойиҳалашнинг модель ва алгоритмлари // Энергия ва ресурс тежаш муаммолари. №3.-Тошкент. – С. 229-239.
5. Махмудов Р. (2024). Мамлакатимизда ёқилғи-энергетика ресурсларини истеъмолчиларга етказиб беришдаги муаммоларга комплекс инновацион ёндашув //International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices. С. 224-235.
6. Рахимов Равиль Зуфарович (2022). Топливо-энергетический комплекс, экология и минеральные вяжущие вещества // Известия КазГАСУ. №3 (61). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/toplivno-energeticheskiy-kompleks-ekologiya-i-mineralnye-vyazhuschie-veschestva>.
7. Саидова А. С. (2023). Энергосбережение и эффективность использования ресурсов ресурс тежамкорликда энергияни тежаш ва ресурс самарадорлигини ошириш resource and energy conservation and resource efficiency //Исследования ВКР—в практику профессиональной жизни: Сборник материалов III Международной научно-практической межвузовской конференции. Часть 2.—М.: ФГБОУ ВО "РГУ им. АН Косыгина", —284 с.
8. Султанов М.Б., Мирзаахмедов Д.М. (2018). Решение задач оптимизации потребности энергетических ресурсов в предприятиях нефтегазовой отрасли /Сборник материалов, Международной научно-технической конференции. Проблемы повышения эффективности использования электрической энергии в аграрном секторе. -Ташкент, С. 378-380.
9. Тарахтиева Гульмира Кульбаевна (2015). Инновации и их роль в управлении развитием топливо-энергетического комплекса Узбекистана // Экономика и финансы (Узбекистан). №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsii-i-ih-rol-v-upravlenii-razvitiem-toplivno-energeticheskogo-kompleksa-uzbekistana>.
10. Умурзоқов Ж. Ш. (2024). Ёқилғи-энергетика саноатида импорт ўрнини босишга йўналтирилган инвестиция лойиҳалари самарадорлиги //Journal of engineering sciences. – Т. 7. – №. 5. – С. 1-11.
11. Шортанов Р. А. (2022). Перспективы привлечения инвестиций в российский топливо-энергетический комплекс из стран БРИКС //Общество: политика, экономика, право. – №. 6 (107). – С. 75-79.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>